



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2023
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2023 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-ракам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д. **М.Э.Пўлатов**

Бош муҳаррир

ўринбосари:

профессор **Д.Х.Асланова**

Масъул котиб:

профессор **М.Қ.Пардаев**

Муҳаррирлар:

Ф.А.Сафаров

Ш.З.Ўрозов

Техник муҳаррир:

А.Н.Холиқулов

Корректор:

С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

Ҳ.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.

Таҳририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темура кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Таҳририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор

Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар
бўйича проректори, иқтисод фанлари номзоди, профессор

Таҳрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Давлат Статис-
тика кўмитаси раиси, иқтисод фанлари доктори, профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ каф.мудир, профессор, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ Самарқанд филиали директори,
иқтисод фанлари доктори, профессор

М.Р.Болтабаев – Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия ва
спорт университети ректори, иқтисод фанлари доктори

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ каф. мудир, и.ф.д., профессор

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ кафедра мудир, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ декани, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ доценти, и.ф.д.

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Илхом Ачилович Усманов Қурилиш соҳасида ўз-ўзини тартибга солишнинг жаҳон тажрибасини қўллаш	76
Юлдуз Пирназаровна Урунбаева Мухим стратегик вазифаларни ҳал этишда хизмат кўрсатиш соҳасининг ўрни	80
Фарход Анварович Сафаров Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида инновацияларни жорий этиш ҳолати ва истиқболлари	85
Насиба Раҳматуллаевна Эргашева Аутсорсинг хизматларининг иқтисодий моҳияти ва аҳамияти	91
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Зарина Улугбековна Ташкенбаева Важность создания положительного имиджа туристических организаций на рынке	96
Бехзод Бахтиёр ўғли Бекназаров Маданий мерос объектларига ташриф буюрувчилар ҳолати ва таҳлили	100
Adxam Anvarovich Karshiyev Turizm sohasini strategik rivojlantirishning ahamiyati	106
Zokirjon Erkinovich Mamarasulov, Izzatillo Xikmatilloevich Shukurov Turistlar marshrutlari uchun ovqatlanish ratsionini takomillashtirish	110
Бекназар Абдуҳалилович Султонов Самарқанд вилоятида гастрономик туристлар хулқ-атвори таҳлили	115
Азиз Қаҳрамонович Тўхтамишов Туризм соҳасида кластерлар ривожланишининг омиллари ва йўналишлари	119
Хонкул Қаҳхарович Самаров Миллий маданий мерос объектларидан фойдаланиб туризмни ривожлантириш истиқболлари	124
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Gulnora Mardiyevna Shadiyeva The concept of "family economy", its development	129
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Шоира Азимовна Мусаева, Дилфуза Илхомовна Усмонова “Sam antep gilam” МЧЖида маркетингни бошқариш элементларини янада ривожлантириш йўллари	134
Абдуҳолик Эгамович Тангиров Бизнес-моделларини ишлаб чиқиш	140
Наврўзжон Тўхтамишович Маҳкамов Корхоналарни барқарор ривожлантиришда сифат менежменти тизимининг роли	145

6. [https:// lex.uz](https://lex.uz)
7. <https://uza.uz>
8. <https://whc.unesco.org/en/list/>

<p>Б.Бекназаров Статус и анализ посетителей объектов культурного наследия (на примере Самаркандской области)</p> <p>Аннотация: В данной статье анализируется ситуация с посетителями известных объектов культурного наследия Самаркандской области на протяжении многих лет. Также в статье на примере Самаркандской области изучается деятельность музеев, которые являются неотъемлемой частью объектов культурного наследия.</p> <p>Ключевые слова: культурное наследие, материальное культурное наследие, архитектура, музей, поход в музей, Регистан, Государственный музей культуры и истории Узбекистана, Музей-комплекс Мирзо Улугбека, Музей Афросияб, Городской историко-краеведческий музей Каттакурган.</p>	<p>B.Beknazarov Status and analysis of visitors to cultural heritage sites (in the context of Samarkand region)</p> <p>Abstract: This article analyzes the situation of visitors to famous cultural heritage sites in Samarkand region over the years. Also, in the article, the activities of museums, which are an integral part of cultural heritage objects, are studied on the example of Samarkand region.</p> <p>Keywords: cultural heritage, material cultural heritage, architecture, museum, trip to the museum, Registan, Uzb. State Museum of Culture and History, Mirzo Ulugbek Museum-Complex, Afrosiyob Museum, Kattakurgan City History Museum.</p>
--	--

Adxam Anvarovich Karshiyev – SamISI tayanch doktoranti

TURIZM SOHASINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sohasini rivojlanishini rejalashtirishning ahamiyati bayon etilgan. Bunda Samarqand viloyati turizm sohasi misolida strategik rivojlanish yo‘nalishlari hamda muallifning viloyatda turizmni rivojlantirish bo‘yicha sakkizta tashabbusi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: rejalashtirish, strategiya, turizm, ziyorat, ekotizim, ilm, innovatsiya.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish, uni yangi bosqichlarga olib chiqish, turistik salohiyat va imkoniyatlarimizdan maksimal darajada foydalanish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, sohani rivojlantirishning me‘yoriy-huquqiy asoslari ham takomillashtirilib borilmoqda.

Tarixiy obidalarga boy yurtimizning turistik salohiyati va bu salohiyatdan foydalangan holda turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Hozirgi vaqtda, dunyoda turizm sohasining bir qancha yangi va zamonaviy turlari ham paydo bo‘lganki, ularning ayrimlarini O‘zbekistonda tadbiq etish ayni muddao bo‘lar edi. Buning natijasida hududlarimizda qo‘shimcha daromad va ish o‘rinlari yaratilishiga, bu esa aholining yashash darajasi va sifatining yanada yaxshilanishiga olib keladi. Shu sababli, turizm sohasi asoslari va uni rag‘batlantirish, muammolarni o‘rganish juda dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Turizm sohasining umumiy asoslari Al-Smadi, H.M., Buzrukova, M., Janzakov, B., Ilieş, A., Grama, V., Ilieş, D.C., Csobán Vargáné, K., Dávid, L.D.lar asarlarida o‘z ifodasini topgan. Turizm sohasini o‘rganayotgan mustaqil davlatlar olimlari orasida Pardayev M., Sazonov T., Batalina M. ni alohida ko‘rsatib o‘tish lozim. Ular o‘z tadqiqotlarida turizmning nazariy asoslarining tahlilini ushbu hodisaning shakllanishi va rivojlanishining xorijiy tajribasini umumlashtirish asosida amalga oshirganlar.

Shunday qilib, turizm sohasida juda ko‘plab ilmiy ishlarning mavjudligiga qaramasdan, ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy munozaralar hali yakunlanmagan. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy dunyoda ushbu hodisaning o‘rni va rolini, o‘ziga xos xususiyatlarini va chegaralarini aniqlash muammolariga hali yetarlicha e‘tibor qaratilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy tahlil, ilmiy mushohada va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Turizm sohasining asosiy maqsadi iqtisodiyotni rivojlantirish, ish o‘rinlari yaratish va jamiyatga foyda keltirish bo‘lib, bu yo‘nalish faoliyati jamiyat manfaatlarini ustuvor hisoblaydi.

2020-yilgacha turizm sohasi dunyodagi eng yirik tarmoqlardan biri bo‘lib, barcha yangi ish o‘rinlarining to‘rtidan biri va jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizi (9,6 trillion dollar)¹ aynan shu sohaga to‘g‘ri kelgan. Shu bilan birga, 2019-yilda jahonda xorijiy turistlar xarajatlari 1,8 trillion AQSH dollarni yoki jahonda yalpi eksportning 6,8 foizini tashkil etdi².

2020-yilda boshlangan koronavirus pandemiyasi turizm sohasi rivojlanishiga keskin salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Pandemiya natijasida dunyo bo‘ylab turizm sohasida 62 million ish o‘rni yopilib, jami 271 million ish o‘rni saqlab qolindi. Butun jahonda turizm sohasidagi pasayish jamiyatning himoyaga muhtoj qatlamlari: yoshlar, ayollar, bolalar va imkoniyati cheklangan insonlar bandlik darajasining 18,6 foiz kamayishiga olib keldi³.

Shu bilan birga, turizm sohasi global miqyosda pandemiya oqibatida 4,9 trillion AQSH dollar zarar ko‘rdi. Garchi 2021-yilda ko‘pchilik ekspertlar turizm sohasining tiklanishini bashorat qilgan bo‘lsada, qayta tiklanish jarayoni koronavirusning Omicron varianti keng tarqala boshlagani natijasida sekinlashdi. Shunga qaramasdan, sohaning jahon YaIMga qo‘shgan hissasi 1 trillion AQSH dollarga ko‘paydi (+21,7 foiz o‘sish) hamda 2021-yilda 5,8 trillion AQSH dollarini tashkil etdi. Bundan tashqari, shu yili sohada tiklanish kuzatildi: dunyo bo‘ylab turizm sohasi va unga bog‘liq tarmoqlarda 18,2 million ish o‘rni qayta tiklandi.

O‘zbekistonda ham turizm sohasi davlat siyosatidagi o‘zgarishlar va to‘g‘ri ishlab chiqilgan rivojlanish strategiyasi tufayli rivojlanmoqda. Masalan, 2019-yilda mamlakatimizga kiruvchi turistlar sonining 6,3 million kishiga yetishi va bu ko‘rsatkich 2017-yilga nisbatan qariyb 2,5 barobar ko‘p ekanligi sohaning naqadar tez o‘sayotganligini bildiradi. Bundan tashqari, valyuta ayirboshlashning erkinlashuvi xorijiy kapital oqimining ham sezilarli ko‘payishiga hissa qo‘shmoqda. Bu esa o‘z navbatida turizmga ham ta‘sir qiladi.

2017-2022 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida turizm sohasini rivojlantirish masalasi bandlik salohiyati, shuningdek, mahalliy iqtisodiyotga qo‘shgan hissasi hamda Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM) va barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi to‘liq o‘z ifodasini topgan. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan turizm bo‘yicha milliy siyosati loyihasida “O‘lchab bo‘lmaydigan narsani boshqarib bo‘lmaydi” deyilgan holda ilmiy jihatdan ishonchli o‘lchash va baholash mezonlariga ega bo‘lish bo‘yicha vazifalar belgilangan.

Umuman olganda, turizm sohasining strategik rivojlanishini tadqiq qilganda dastlab, rejalashtirish bo‘yicha tushunchalarni aniqlab olishdan boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Rejalashtirish - bu maqsadlar, ustuvorliklarni ilmiy asoslash, ularga erishish yo‘llari va vositalarini belgilash jarayoni hisoblanadi⁴. Amalda rejalashtirish rejalar ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Reja esa o‘z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimi va turli tadbirlar majmuini o‘z ichiga olgan hujjat hisoblanadi. U maqsadlar, ustuvorliklar, resurslar, ularni ta‘minlash manbalari, amalga oshirish tartibi va muddatlarini aks ettiradi. Rejalashtirish uch turga bo‘linadi:

Strategik rejalashtirish - bu moslashuvchan jarayon bo‘lib, buning natijasida doimiy monitoring va baholash asosida dasturlar, prognozlar, rejalar, qo‘shimchalar va ularni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimiga o‘zgartirishlar shaklida qarorlarni muntazam (yillik) tuzatish amalga oshiriladi.

Indikativ rejalashtirish aniq iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda strategik rivojlanish

¹ UNWTO ma‘lumotlar: <http://unwto.org>

² O‘sha joyda

³ O‘sha joyda

⁴ Pardayev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2008. –B.133.

rejasida belgilangan maqsadlarga erishishning asosiy ish quroli hisoblanadi. Indikativ prognoz rejasi strategik rejani to'ldiradi hamda qisqa va o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiyotni rivojlantirishda amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Direktiv rejalashtirish, ya'ni majburiy, qat'iy majburiy, birinchi navbatda, qo'mondonlik va boshqaruv mexanizmlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish majburiy shart orqali amalga oshiriladi. Amaliyotda strategik maqsadlarga erishish uchun yuqorida keltirilgan rejalashtirish turlari aralash holda qo'llaniladi.

Davlat turizm sohasini rivojlantirish uchun jadal o'sish traektoriyasini qabul qilishga intilmoqda. 2027-yilga borib Samarqand viloyati O'zbekistonning eng yaxshi sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylanishi kutilmoqda¹. Viloyatda 2027-yilga kelib turizmdan keladigan daromadni qariyb to'qqiz baravar oshirish va qo'shimcha 1000 ish o'rni yaratishni maqsad qilingan. Shunga muvofiq, davlat tomonidan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi turizm siyosati ishlab chiqildi. Viloyatda turizmni rivojlantirish bo'yicha batafsil harakatlar rejasini aniqlaydigan turizm missiyasi o'z ishini boshladi. Ko'p maqsadli turizmni rivojlantirish uchun 100 milliard so'mlik yuzdan ortiq loyihalar yaqin besh yilda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Viloyat turizm boshqarmasi investorlar uchun turistik loyihaga oddiygina murojaat qilish uchun “Yagona oyna” ko'mak xizmatini yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqda.

Shu bilan birga, biz milliy turizmni global miqyosga chiqarishni maqsad qilgan “Turizm kelajagi” loyihasini taklif etdik. Ushbu loyiha ikkita qismdan iborat bo'lib, birinchisi global turizmni rivojlanish holatini xalqaro turizm tashriflari, daromadlar, bandlik va infratuzilma ko'rsatkichlari orqali aks ettirgan “Global dunyo” deb nomlangan, ikkinchisi esa O'zbekistonda sohaning rivojlanish muammolari va ularning potensial yechimlariga bag'ishlanishi sababli “O'zbekiston” deb nomlangan.

“Turizm kelejagi” loyihasi asosida hozirgi global hamda milliy turizmning ilg'or tajribalari, turli tadqiqotlarni o'rganib, mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda va 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, biz turizm sohasining barqaror rivojlanishi uchun sakkizta tashabbusni taklif qilamiz. Ular quyidagilardan iborat:

1. Yuqori rentabellikga ega, jahon bozoriga yo'naltirilgan barqaror turizm mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish;
2. Turistik obyektlarda marketing, brending va jahon darajasidagi tashrif buyuruvchilar tajribasini taqdim etish;
3. Muhim turistik yo'nalishlar atrofida infratuzilmani yaratish va modernizatsiya qilish;
4. Investorlar uchun xususiy kapitalni boshqarish va maqsadli yo'naltirish bo'yicha imkoniyatlarni kengaytirish;
5. Davlatning iqtisodiy siyosati va institutsional maqsadlarni strategik maqsadlarga moslashtirish;
6. Turizm ta'limi va malakasini rivojlantirish dasturini joriy etish;
7. Turistik biznesni tashkil etishni rag'batlantirish va xodimlar malakasini oshirish orqali mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash;
8. Turistik xizmatlarni ishlab chiqish va sotishda raqamli texnologiya, veb-saytlar va mobil ilovalar yaratish va hokazo.

Joriy tashabbuslardan tashqari “Turizm kelajagi”da turizm sohasini rivojlantirishning ko'p qirrali jihatlariga e'tibor qaratilgan. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi maqsadlariga erishishda Samarqand viloyatida turizm sohasi oldida turgan sakkizta asosiy muammodan kelib chiqadigan sakkizta mavzu aniqlandi. Bizning fikrimizcha, turizm sohasini rivojlantirish inklyuzivlik (barcha shaxslar, shu jumladan, imkoniyati cheklangan insonlar uchun turizmning ochiqligi), raqobatbardoshlikni ta'minlash va barqaror o'sishni rag'batlantirish kabi tamoyillarga asoslanishi kerak. Loyihaning asosiy maqsadi Samarqand viloyatiga tashrif buyuruvchi turistlarning sayohatdan qoniqish darajasini va qaytib kelishi ehtimolini oshirish hisoblanadi.

¹ Safarov, B., Al-Smadi, H.M., Buzrukova, M., Janzakov, B., Ilies, A., Grama, V., Ilies, D.C., Csobán Vargáné, K., Dávid, L.D. (2022). Forecasting the Volume of Tourism Services in Uzbekistan. *Sustainability*, 14, 7762. <https://doi.org/10.3390/su14137762>

Loyiha soha rivojlanishining uchta keng yo‘nalishini belgilaydi: innovatsion turizm mahsulotlarini yaratish, turistlar va investorlar uchun qulay muhit yaratish hamda sakkizta tashabbusni qamrab olgan holda asosiy infratuzilmani rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan uchta strategik tamoyillar 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi maqsadlariga erishish uchun davlat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan harakatlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi. Strategik ustuvorliklar uchta istiqbolga asoslangan: qisqa muddatli, o‘rta muddatli va uzoq muddatli turlariga bo‘linadi.

Xulosa va takliflar. Qisqa muddatda davlat turizm aktivlarini qayta tashkil etish ustida ish olib boradi. Bunda asosiy e‘tibor sayyohlik loyihalari uchun eng yaxshi rejalarni ishlab chiqishga qaratiladi. Mamlakatda turizm aktivlari (tarixiy obyektlar, infratuzilma, tabiiy o‘ziga xosliklar) ning sifat va ekologik jihatdan yaxshilanishi hamda turistlarning tashrifi uchun shay holatda turishi asosiy maqsad hisoblanadi.

O‘rta muddatli istiqbolda davlat yuqori sifat standartlarini belgilash orqali raqobatdosh ustunliklarni yaratishga e‘tibor qaratadi. Bu jarayonda turizmni joylarda rivojlanishiga ma‘sul hisoblangan turizm departamenti ziyorat turizmi, ekoturizm kabi sohalarda turizm mahsulotlarini ilgari surish uchun uzoq muddatli infratuzilmadan foydalanish rejasini tuzib tegishli institutlar bilan faoliyatni muvofiqlashtiradi.

Uzoq muddatli istiqbolda davlat barqaror turizm ekotizimini yaratishni maqsad qiladi. Bunda turizmdan qashshoqlikka qarshi kurash vositasi sifatida foydalanish, xarajatlar tarkibini optimallashtirish ustuvor hisoblanadi. Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, turizm sohasi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari bandligini ta‘minlaydigan sohalardan biri bo‘lganligi sababli, aynan uning rivojlanishi mamlakatda ijtimoiy muhitga ijobiy ta‘sir qilishi ehtimoli yuqori hisoblanadi.

Quyida 1-jadvalda yuqorida keltirilgan fikrlar umumlashtirilgan holda keltirilgan.

1-jadval.

Samarqand viloyatida turizmni rivojlantirishning strategik ustuvor yo‘nalishlari

Qisqa muddatda	O‘rta muddatli istiqbolda	Uzoq muddat
Turizm tashabbuslari	Yuqori sifat standartlarini belgilash	Xarajatlar strukturasi optimallashtirish
Ishbilarmon sayohatchilar sonining ko‘payishi	Sinergetik muvofiqlashtirish	Turizmdan qashshoqlikka qarshi kurash vositasi sifatida foydalanish
Xususiy sarmoyalarni jalb qilish va boshqaruvni yaxshilash	Ziyorat turizmi kabi turistik mahsulotlarni ilgari surish	Barqaror turizm ekotizimini yaratish

Bugungi kunda, Samarqand viloyatida Imom Al Buxoriy majmuasi ichki ziyorat bozorida ustunlik qilishda davom etmoqda. Biroq, hali hanuz o‘rtacha iste‘molchi uchun qimmat havo yo‘llari tarmog‘i chet ellik mehmonlarni jalb qilish imkoniyatini sezilarli darajada kamaytirdi. Samarqand xalqaro aeroporti bir nechta xalqaro yo‘llar kesishgan yagona aeroport bo‘lganiga qaramasdan, aeroportda havo tashuvchilar soni kamligi sababli, hudud Toshkent aeroporti shlyuzlaridan foydalanishga majbur bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, Samarqand shahriga kunduzgi tashrif buyuruvchilarning ulushi juda yuqori bo‘lganligidan kelib chiqib¹ (90%), ularni bir kechaga tunab qolishga ko‘ndirish yoki turistlarda shunday motivatsiya yaratish, sohada umumiy daromadlarni kamida 10 foizga oshirishga xizmat qilishi mumkin². Buning asosiy sababi odatda turistlar bir kecha yotib qolganlarida yotib qolmagan ekskursantlarga nisbatan deyarli uch barobar ko‘proq xarajat qilishadi. Shu bilan birga, fikrimizcha turistik oqimni ziyorat turizmidan tashqari boshqa rekreatsion turizm loyihalariga yo‘naltirish kuchayishi kerak. Masalan, sog‘lomlashtirish joylari,

¹ Safarov, B., Al-Smadi, H.M., Buzrukova, M., Janzakov, B., Ilies, A., Grama, V., Ilies, D.C., Csobán Vargáné, K., Dávid, L.D. (2022). Forecasting the Volume of Tourism Services in Uzbekistan. *Sustainability*, 14, 7762. <https://doi.org/10.3390/su14137762>

² O‘sha joyda

kurortlar, muqobil davolash usullari markazlari, meditatsiya va boshqa tibbiy hamda dam olish maskanlarida tashrif buyuruvchilar uchun sharoitlarning yaxshilanishi yuqori daromadli turistlar oqimi jalb qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shibcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4095-sonli Qarori.
3. Pardayev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohaslarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. O‘quv qo‘llanma. – T.:“Iqtisod-moliya”, 2008. –B.133.
4. Safarov, B., Al-Smadi, H.M., Buzrukova, M., Janzakov, B., Iliş, A., Grama, V., Iliş, D.C., Csobán Vargáné, K., Dávid, L.D. (2022). Forecasting the Volume of Tourism Services in Uzbekistan. Sustainability, 14, 7762. <https://doi.org/10.3390/su14137762>
5. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi.
6. CBI Ministry of Foreign affairs. <https://www.cbi.eu> sayti.
7. <http://unwto.org> sayti.

А.Каршиев	A.Karshiev
<p>Стратегическое значение развития туризма Аннотация: В этой статье описывается важность планирования в развитии туризма. При этом на примере туристической сферы Самаркандской области выделены стратегические направления развития и восемь авторских инициатив по развитию туризма в регионе. Ключевые слова: планирование, стратегия, туризм, экотуризм, паломничество, наука, инновация.</p>	<p>Strategic importance of tourism development Abstract: This article describes the importance of planning in tourism development. In this case, on the example of the tourism sector of Samarkand region highlighted the strategic directions of development and the author's eight initiatives to develop tourism in the region. Keywords: planning, strategy, pilgrimage, tourism, ecotourism, science, innovation.</p>

Zokirjon Erkinovich Mamarasulov – SamISI “Servis” kafedrasida katta o‘qituvchisi
Izzatillo Xikmatilloevich Shukurov – SamISI “Servis” kafedrasida mudiri, dotsent

TURISTLAR MARSHRUTLARI UCHUN OVQATLANISH RATSIONINI TAKOMILLASHTIRISH

<p>Annotatsiya: maqolada mahalliy va xorijiy turistlarning tog‘ turizmi bo‘yicha sayohat qilish chog‘ida harakatlanish bosqichlari va bu bosqichlar uchun namunaviy menyu asosida ovqatlanish variantlari ishlab chiqildi va ushbu menyu ratsioniga amalga qilish bo‘yicha tavsiyalar keltirib o‘tildi. Kalit so‘zlar: turizm va xizmat ko‘rsatish sohasi, tog‘ turizmi, to‘g‘ri ovqatlanish, menyu (taomnoma) ratsioni, toifalar, bosqichlar, variantlar, ovqatlanish turlari, kaloriyalik, kimyoviy tarkib, kunlik ratsion.</p>
--

Kirish. Ayni damda mahalliy va xorijiy turistlarning tashrifi ko‘payib bormoqda. Bu esa ularga xizmat ko‘rsatish turlarini ko‘paytirish, sifatli taomlar bilan ovqatlantirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan turizm va xizmat ko‘rsatish sohasiga oid qabul qilingan Farmonlari va Qarorlarida belgilab berilgan vazifalarni to‘g‘ri amalga oshirish kerak bo‘ladi. Bularndan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020 yil 10 iyulda “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 433-sonli Qarori qabul qilindi¹. Ushbu Qarorda turizmni rivojlantirishga oid bo‘lgan Nizomlar va ularda xizmat ko‘rsatish turlari bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab berilgan. Shuningdek turistlarning ovqatlanishini to‘g‘ri tashkil etishga oid vazifalar ham belgilab berilgan.

¹ www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 433-sonli Qarori. 2020 yil 10 iyul.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

9.03.2023 йилда теришга берилди. 22.03.2023 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0016 А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023